



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
Qaraev Anvar Botirovich	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI	115
G'afurov Sherzod Abdvaxob o'g'li	
O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARNING AHAMIYATI	120
Usmanova Zumrad Islamovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODELI VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI	162
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	171
Jalalova Dildora Jamolovna	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	174
Лана Цхай	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI	181
G'oziyeva Moxira Rustam qizi	



TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	189
Yuldashova Yoqutoy	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	193
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI	199
Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT	210
Xolmurodova Durdona Otamurod qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	218
Саттарова Зухра Илхомовна	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI	224
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	229
Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL	235
Hasan Ibragimov Mannonov Shahzod Toshmurod Qulmanov	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	242
Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi	
IJTIMOIIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	247
Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich Ibragimov Qayumbek Ikromovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	254
Muminov Bekzod Polvonovich	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Abdulatifova Moxinur Alisher qizi	
FIZIKA FANINI SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ASOSIDA SAMARALI O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	275
Razzoqov I.D.	
RAQAMLI MEHNAT BOZORLARI VA IQTISODIY BARQARORLIK: O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL	281
Safarova Gulruh Akmal qizi	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КАТЕГОРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И НАУЧНЫЙ	



ПОДХОД К ЕЁ ОПРЕДЕЛЕНИЮ.....	287
Зайналов Ж. Р.	
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI.....	293
Xolmatova Mumtozbeqim Alisherxon qizi	
TURISTIK BOZOR KONYUNKTURASINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	298
Usmanova Zumrad Islamovna	
PREPARATION OF NUT JAM USING MULBERRY SYRUP BASED ON ITS CONSUMER PROPERTIES.....	302
Pardaev Gayrat Yakhshibaevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MEROS OBYEKTLARINING TURISTIK SIG‘IM IMKONIYATLARI.....	306
Tolibova Shaxrizoda	
КОМПЛЕКСНЫЙ НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОТЧЕТ: ТРАНСФОРМАЦИЯ, ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРАХОВОГО РЫНКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	314
Махмудов Комолиддин Розметович	
SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN DEVELOPING COUNTRIES: THE SYNERGY OF INVESTMENT, AGRICULTURAL TRANSFORMATION, AND ENVIRONMENTAL POLICY.....	319
Kholmukhamedova Feruza	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	324
Mir Axmadova Mariyam Nosir Axmadovna	
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛИКВИДНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РУСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	330
Бауетдинов Мажит Жанызакович	
Жанызакова Шахноза Мажит кызы	
FEATURES AND WAYS OF FURTHER DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY.....	338
Kobilov Alisher	
Majidova Irodahon	
RAQAMLI UNIVERSITET MODELI — BARQAROR OLIY TA‘LIMNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	346
Nazirova Komola Raximjon qizi	
HUDUD EKSPORTINING XOM ASHYOGA BOG‘LIQLIGI: MOLIYAVIY OQIBATLAR VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	352
Norturayev Mansurbek Obid o‘g‘li	
MOLIYA BOZORINING IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	359
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Miryunusov Avaz Iqboljon o‘g‘li	
ECONOMIC FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	363
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
KORXONA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	368
Shodmanov Toshtemir Ro‘ziyevich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BOZOR MEKANIZMLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI.....	372
Amonova Nazokat O‘tkurovna	



ЭКОНОМИКА АВТОМАТИЗАЦИИ КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ СТРУКТУРУ ЗАТРАТ И БИЗНЕС-МОДЕЛИ	378
Ли Д.Э.	
KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIGA TATBIQ ETISH YO'NALISHLARI.....	382
Bozorov Jasurbek Panji o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	387
Tashxodjeyev Abdurasul Abdulmansurovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL.....	395
Abdig'aniyeva S.M.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	401
Raxmanov Furqat Temirovich	
BANKLARDA SUG'URTA FAOLIYATINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	407
Isayeva Xolbibibi Boboqulovna	
Ziyatova Sitora Baxtiyor qizi	
BANKLARDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA AXBOROT RISKLARINI BOSHQARISH	413
Eshqobilov Ahmad Javliyevich	
MAMLAKAT INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O'RNI	418
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlatgeldi qizi	
QURITILGAN ORGANIK MEVA MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT MARKETING OPERATORLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MEKANIZMI	423
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ КАК ДРАЙВЕР ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	428
Саттарова Зухра Ильхамовна	
THE IMPACT OF SMART TOURISM TECHNOLOGIES ON TOURIST SATISFACTION AND REVISIT INTENTION: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	434
Yusubova Mahliyo Ikramovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI.....	441
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SAMARQAND VILOYATIDA INTERNETALOQA XIZMATLARI KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	448
Sattarova Zuxra Iloxomovna	
Qodirov Jalol	
Saidmurodov Sherzod	
Erkinov Jasur	
УЧЁТ ESG-ФАКТОРОВ ПРИ ОЦЕНКЕ КРЕДИТНЫХ РИСКОВ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	454
И. Р. Бердикулова	
INVESTITSIYA MUHITI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHNING XORIJIY MODELLARI VA ULARNI MILLIY IQTISODIYOTGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI	458
Boboqulova Mohina G'ofur qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ANIQLASH VA KAMAYTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARI.....	464
Xaydarov Sardorbek Raxmatilloevich	



АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ	471
Абдурахманова Гульнора Каландаровна	
Хайдарова Малика Шокирджоновна	
ISHCHI KUCHIDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING ISHCHI KUCHI BOZORI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	476
Mamaraximov Bekzod Erkinovich	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATSIYALARNING PUL OQIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH	482
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
THE ROLE OF INTERNATIONAL TOURISM IN IMPROVING LIVING STANDARDS IN UZBEKISTAN: A MULTI-EQUATION ECONOMETRIC ANALYSIS WITH ARDL BOUNDS TESTING	489
Adalat Khudaybergenova	
Khamida Fayziyeva	
Dildora Rakhmonova	
Ozatbekova Ozodakhon	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA INNOVATSION BOSHQARUVNING INTEGRALLASHUVI: IQTISODIY RIVOJLANISH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI	503
G'aniyev Sardor Toshmurodovich	
SAMARQAND VILOYATIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	508
Sattarova Zuhra Ilhomovna	



SAMARQAND VILOYATIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Sattarova Zuhra Ilhomovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Real iqtisodiyot kafedrası dotsent v.b.

E-mail: samisi_sayoh@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyatida transport xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari iqtisodiy, infratuzilmaviy, raqamli va institutsional omillar kesimida tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyat transport xizmatlari bozorining o'sish dinamikasi, yuk va yo'lovchi tashish ko'rsatkichlari, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalar asosida xizmat sifatini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Samarqand viloyati turizm, savdo, agrosanoat va hududlararo xizmatlar markazi sifatida transport tizimiga yuqori talab shakllantiradi. Transport xizmatlarini rivojlantirish faqat yo'l va transport vositalarini yangilash bilan cheklanmay, logistika tugunlari, multimodal bog'lanishlar, elektron to'lov, GPS-monitoring, ma'lumotlar asosida boshqaruv va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Maqolada transport xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport xizmatlari, Samarqand viloyati, transport infratuzilmasi, logistika, multimodal tashish, raqamli boshqaruv, GPS-monitoring, elektron to'lov, elektrobus, davlat-xususiy sheriklik, xizmat sifati, transport samaradorligi.

Аннотация: В статье анализируются направления развития транспортных услуг в Самаркандской области с точки зрения экономических, инфраструктурных, цифровых и институциональных факторов. В исследовании рассмотрены динамика рынка транспортных услуг региона, показатели грузовых и пассажирских перевозок, механизмы модернизации транспортной инфраструктуры, а также возможности повышения качества услуг на основе цифровых технологий. Самаркандская область как центр туризма, торговли, агропромышленного комплекса и межрегиональных услуг формирует высокий спрос на транспортную систему. Развитие транспортных услуг требует не только обновления дорог и транспортных средств, но и интеграции логистических узлов, мультимодальных связей, электронных платежей, GPS-мониторинга, управления на основе данных и механизмов государственно-частного партнёрства. В статье разработаны научно-практические предложения по повышению эффективности транспортных услуг.

Ключевые слова: транспортные услуги, Самаркандская область, транспортная инфраструктура, логистика, мультимодальные перевозки, цифровое управление, GPS-мониторинг, электронные платежи, электробусы, государственно-частное партнёрство, качество услуг, эффективность транспорта.

Abstract: The article analyzes the directions for developing transport services in the Samarkand region in terms of economic, infrastructural, digital, and institutional factors. The study examines the dynamics of the regional transport services market, freight and passenger transportation indicators, mechanisms for modernizing transport infrastructure, and opportunities for improving service quality based on digital technologies. The Samarkand region, as a center of tourism, trade, agro-industry, and interregional services, generates high demand for the transport system. The development of transport services requires not only the renewal of roads and vehicles but also the integration of logistics hubs, multimodal connections, electronic payment systems, GPS monitoring, data-driven management, and public-private partnership mechanisms. The article proposes scientific and practical recommendations for improving the efficiency of transport services.

Keywords: transport services, Samarkand region, transport infrastructure, logistics, multimodal transport, digital management, GPS monitoring, electronic payment, electric buses, public-private partnership, service quality, transport efficiency.



KIRISH

Samarqand viloyatida transport xizmatlarini rivojlantirish hududiy iqtisodiyotning ishlab chiqarish, savdo, turizm va ijtimoiy xizmatlar tizimi bilan bevosita bog'langan strategik masaladir. Viloyat geografik joylashuvi, turistik salohiyati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, shahar va tumanlar o'rtasidagi iqtisodiy almashinuv faolligi bilan transport xizmatlariga yuqori va barqaror talab shakllantiradi. Transport xizmati bu yerda faqat yo'lovchi va yuklarni manzilga yetkazib beruvchi tarmoq emas, balki hududiy iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi, tovar aylanishini tezlashtiruvchi, aholi harakatchanligini kengaytiruvchi va xizmatlar sektorining uzluksiz ishlashini ta'minlovchi infratuzilmaviy mexanizm sifatida namoyan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori bilan tasdiqlangan transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish, logistika xarajatlarini kamaytirish, multimodal tashishlarni kengaytirish, konteynerlarda yuk tashish ulushini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan [1]. Bu vazifalar Samarqand viloyati uchun ham amaliy mazmunga ega, chunki viloyat respublika ichki bozorida ham, turizm oqimlari va hududlararo savdo harakatida ham yirik tugunlardan biri hisoblanadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-noyabr oylarida O'zbekistonda transport xizmatlari hajmi 168,4 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 foizga oshgan [2]. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi press-relizida 2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda bozor xizmatlari hajmi 53 131,8 mlrd so'mga yetgani, transport xizmatlari hajmi esa 10 168,0 mlrd so'mni tashkil etgani ko'rsatilgan [3]. Bu raqamlar viloyatda transport xizmatlari mustaqil yirik bozor segmenti sifatida shakllanayotganini bildiradi.

Maqolaning maqsadi Samarqand viloyatida transport xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy asoslash, mavjud rivojlanish ko'rsatkichlari va infratuzilmaviy omillarni tahlil qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti Samarqand viloyatining transport xizmatlari bozori, predmeti esa transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli boshqaruv va logistika integratsiyasi asosida xizmatlar samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport xizmatlarini rivojlantirish masalalari transport iqtisodiyoti, logistika va hududiy rivojlanish nazariyalarida keng tadqiq etilgan. J.-P. Rodrigue transport tizimini tarmoqlar, tugunlar, oqimlar va hududiy makon o'rtasidagi murakkab bog'lanish sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvida transport xizmati mustaqil yakuniy talab emas, balki ishlab chiqarish, savdo va iste'moldan kelib chiqadigan hosilaviy talabni qondiruvchi tizim sifatida baholanadi [4]. K. Button transport infratuzilmasi investitsiyalarining hududiy raqobatbardoshlik, tashish xarajatlari va bozor qamroviga ta'sirini iqtisodiy asoslar bilan izohlaydi [5].

M. Christopher va logistika maktabi vakillari transport xizmatlarini ta'minot zanjiri samaradorligining tayanch bo'g'ini sifatida o'rganadi. Ularning qarashlarida transport qarorlari alohida tashish xarajatlari bilan emas, butun zanjirdagi vaqt, zaxira, xizmat darajasi va mijoz qoniqishi bilan birgalikda baholanadi [6]. Bu qarash Samarqand viloyati uchun dolzarb, chunki turizm, savdo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berish va shaharlararo xizmatlar aynan transport-logistika zanjiri sifati orqali iqtisodiy natija beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda transport xizmatlari milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi, hududiy bozorlarni bog'lovchi va xizmatlar sohasi samaradorligini oshiruvchi infratuzilma sifatida yoritiladi. Q.S. Rajabov transport xizmatlarini rivojlantirish tamoyillarini xizmat sifati, bozor talabi, texnik baza va boshqaruv omillari bilan bog'laydi [7]. O.B. Tursunov transport-logistika xizmatlari sifatini iqtisodiy baholashda marshrut optimalligi, servis standartlari va raqamli boshqaruv vositalarining ahamiyatini asoslaydi [8].

Mavjud adabiyotlarda transport xizmatlarining iqtisodiy mazmuni, logistika samaradorligi va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Samarqand viloyati misolida esa transport xizmatlarini hududiy xizmatlar tizimi, turistik oqimlar, shahar jamoat transporti, raqamli to'lov va elektrotransport bilan integratsiyalashgan holda o'rganishga ehtiyoj yuqori. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati aynan shu bo'shliqni to'ldirish, transport xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini viloyatning hududiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog'lab asoslashda ko'rinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik taqqoslash, dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy guruhlash, mantiqiy umumlashtirish va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil transport xizmatlarini yo'l, transport vositasi, logistika markazi, raqamli boshqaruv, servis sifati va foydalanuvchi talabi o'rtasidagi bog'langan



majmua sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Dinamik qatorlar tahlili orqali Samarqand viloyatida transport xizmatlari hajmi, yuk tashish, yuk aylanmasi, yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasining 2021–2025-yillardagi o'zgarishlari baholandi.

Tarkibiy guruhlash usuli transport xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini moddiy-texnik baza, logistika tugunlari, raqamli boshqaruv, tashkiliy model va investitsion-institutsional mexanizmlar bo'yicha ajratishga xizmat qildi. Institutsional tahlil orqali davlat dasturlari, hududiy boshqaruv organlari, xususiy sektor, transport operatorlari, moliya institutlari va iste'molchilar manfaatlarini o'rtasidagi o'zaro ta'sir ko'rib chiqildi. Axborot bazasi sifatida Milliy statistika qo'mitasi, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, Lex.uz huquqiy bazasi, transport iqtisodiyotiga oid ilmiy adabiyotlar hamda BMI materiallarida keltirilgan jadval va chizmalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarqand viloyatida transport xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy zarurati, avvalo, tarmoqning xizmatlar bozoridagi o'sish sur'atlari va hududiy xo'jalik tizimidagi funksional mavqei bilan belgilanadi. Viloyatda transport xizmatlari savdo, turizm, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish, qurilish materiallari harakati hamda shahar va tumanlar o'rtasidagi mehnat mobilligi uchun zarur bo'lgan infratuzilmaviy zaminni yaratadi. Transport xizmatlari sustlashgan joyda bozor sig'imi torayadi, korxonalarining yetkazib berish xarajatlari ortadi, yo'lovchi va turist oqimlari bo'yicha yo'qotishlar kuchayadi (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatida transport xizmatlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2025-yilda 2021-yilga nisbatan o'zgarish, %
Transport xizmatlari hajmi, mlrd so'm	5 464,7	6 424,3	8 056,1	10 875,8	14 558,4	+166,4
Tashilgan yuklar, ming tonna	55 210,4	57 324,2	60 097,1	63 487,6	67 400,7	+22,1
Yuk aylanmasi, mln t-km	1 467,1	1 466,5	1 673,4	1 789,8	2 138,7	+45,8
Tashilgan yo'lovchilar, ming kishi	423 426,8	432 786,2	445 644,9	476 707,1	516 157,4	+21,9
Yo'lovchi aylanmasi, mln yo'lovchi-km	13 974,6	14 014,7	14 839,6	16 201,4	16 709,0	+19,6

Jadval ma'lumotlari transport xizmatlari hajmining 2021-yildagi 5 464,7 mlrd so'mdan 2025-yilda 14 558,4 mlrd so'mga ko'tarilganini ko'rsatadi. Bu o'sish viloyatda transport xizmatlariga bo'lgan talabning narx va real tashish hajmlari kesimida kengayganini, hududiy bozor sig'imi ortganini anglatadi. Yuk aylanmasining 45,8 foizga ko'paygani transport xizmatlari faqat qisqa masofali mahalliy harakat bilan cheklanmay, hududlararo bog'lanishlarda ham faol rol o'ynayotganini bildiradi.

Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasining o'sishi shahar va tumanlar o'rtasidagi mehnat, ta'lim, savdo va turistik harakat faollashganini ko'rsatadi. Transport xizmatlarini rivojlantirish siyosati faqat yangi transport vositalari xarid qilishga qaratilsa, bu o'sishning sifat jihati yetarli darajada ta'minlanmaydi. Samaradorlik transport vositasi parki, yo'l infratuzilmasi, marshrutlar tarmog'i, to'lov tizimi, logistika tugunlari va raqamli nazorat vositalari birgalikda ishlaganida yuzaga chiqadi (2-jadval).



2-jadval

Samarqand viloyatida transport xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Rivojlantirish yo'nalishi	Asosiy mazmuni	Samarqand viloyati uchun iqtisodiy ahamiyati
Moddiy-texnik bazani yangilash	Yo'llar, ko'priklar, avtobus parki, yuk transporti, texnik servis va xavfsizlik infratuzilmasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish	Tashish tezligi oshadi, transport vositalari bekor turishi kamayadi, xizmat xavfsizligi va qatnov ishonchiligi kuchayadi
Logistika markazlari va multimodal tugunlar	Yuk terminali, saqlash, saralash, qayta yuklash, temir yo'l-avtomobil bog'lanishlari va turistik transport tugunlarini rivojlantirish	Savdo va agrosanoat mahsulotlari harakati tezlashadi, logistika xarajatlari kamayadi, eksport va ichki bozor aloqalari kengayadi
Raqamli boshqaruv tizimlari	GPS-monitoring, elektron jadval, onlayn dispetcherlik, elektron hujjat aylanishi va transport oqimlarini real vaqt rejimida tahlil qilish	Boshqaruv shaffofligi ortadi, marshrutlar talabga moslashadi, yoqilg'i va vaqt sarfi qisqaradi
Jamoat transporti sifatini oshirish	Elektron to'lov, yo'lovchi axborot tizimi, muntazam qatnov, qulay bekatlar, inkluziv transport vositalari va ekologik transportni kengaytirish	Aholi harakatchanligi yaxshilanadi, turistik xizmatlar qulaylashadi, shahar transportidagi tirbandlik va ekologik bosim pasayadi
Investitsion-institutsional mexanizmlar	Davlat-xususiy sheriklik, xususiy operatorlarni jalb etish, imtiyozli moliyalashtirish, servis standartlari va monitoring indikatorlari	Tarmoq rivoji faqat budjet mablag'lariga bog'lanib qolmaydi, xususiy tashabbus va raqobat kuchayadi

Rivojlantirish yo'nalishlari o'zaro bog'langan tizim sifatida qaralishi kerak. Masalan, logistika markazlari qurilsa-yu, raqamli hujjat aylanishi va transport oqimini kuzatish tizimi yetarli bo'lmasa, terminalning iqtisodiy samarasi cheklanadi. Elektron to'lov joriy etilib, qatnov jadvali optimallashtirilmasa, yo'lovchi uchun qulaylik to'liq shakllanmaydi. Investitsion mexanizmlar servis standartlari bilan birga ishlab chiqilmasa, xususiy operatorlar faoliyatida qisqa muddatli daromad ustuvor bo'lib qolishi mumkin (3-jadval).


3-jadval

Raqamli texnologiyalar asosida transport xizmatlari samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Texnologik yo'nalish	Joriy etish mazmuni	Kutilayotgan iqtisodiy samara	Nazorat indikatorlari
GPS-monitoring va dispetcherlik	Transport vositalari harakatini real vaqt rejimida kuzatish, bekor turish va kechikishlarni aniqlash	Yoqilg'i sarfi va vaqt yo'qotishlari kamayadi	Qatnovga rioya qilish darajasi, bekor turish vaqti
Elektron to'lov tizimi	Transport kartasi, bank kartasi, QR va mobil ilovalar orqali naqd pulsiz to'lovni kengaytirish	Hisob-kitob shaffofligi ortadi, tushumlar nazorati kuchayadi	Naqd pulsiz to'lovlar ulushi
Elektron hujjat aylanishi	Yuk tashish, terminal operatsiyalari va transport-ekspeditsiya hujjatlarini raqamlashtirish	Tranzaksiya xarajatlari va rasmiylashtirish vaqti qisqaradi	Elektron rasmiylashtirilgan buyurtmalar ulushi
Marshrutlarni ma'lumotlar asosida optimallashtirish	Yo'lovchi oqimi, tirbandlik, turistik mavsum va qatnov yuklamasini tahlil qilish	Transport resurslari talabga mos taqsimlanadi	Marshrut rentabelligi, o'rtacha kutish vaqti
Ekologik transport vositalari	Elektrobus, energiya tejamkor transport, quvvatlash infratuzilmasi va servis bazasini rivojlantirish	Atmosfera chiqindilari pasayadi, ekspluatatsion xarajatlar maqbullashadi	Elektrotransport ulushi, energiya sarfi

Jadvaldan ko'rinadiki, raqamli texnologiyalar transport xizmatlari sifatini faqat axborot almashinuvi darajasida emas, balki resurslardan foydalanish, tushumlar shaffofligi, qatnov intizomi va ekologik samaradorlik orqali ham oshiradi. Samarqand viloyati uchun elektron to'lov va GPS-monitoring tizimlarining keng joriy qilinishi shahar jamoat transportida ham, tumanlararo qatnovlarda ham xizmat natijadorligini oshiradi. Elektron hujjat aylanishi yuk tashish va logistika segmentida ortiqcha rasmiylashtirish xarajatlarini kamaytiradi (1-rasm).

3.3-rasm. Zamonaviy texnologiyalar asosida transport xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmi



1-rasm. Zamonaviy texnologiyalar asosida transport xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmi

Rasmda samaradorlikni oshirish mexanizmining markazida raqamli boshqaruv, marshrut optimallashtirish, elektron to'lov, logistika-axborot integratsiyasi, zamonaviy transport texnologiyalari va mijozga yo'naltirilgan servis joylashtirilgan. Bu bloklar bir-birini to'ldiradi: raqamli kuzatuv marshrutlarni aniq baholash imkonini beradi, elektron to'lov moliyaviy shaffoflikni kuchaytiradi, mijozga yo'naltirilgan servis xizmat sifati bo'yicha qayta aloqani shakllantiradi.

Samarqand viloyatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda turistik hududlar, vokzal va aeroport atrofidagi qatnovlar, shahar markazi va tumanlararo bog'lanishlar alohida segmentlar sifatida tahlil qilinishi kerak. Bir xil texnologik yechim barcha hududlarda bir xil natija bermaydi. Shahar markazida elektron to'lov va real vaqt jadvali ustuvor bo'lsa, tumanlarda qatnov muntazamligi, yo'l sifati, avtobus parki va tumanlararo integratsiya ko'proq ahamiyat kasb etadi (4-jadval).



Bosqich	Asosiy chora-tadbir	Ijro mexanizmi	Kutilayotgan natija
1-bosqich: diagnostika	Transport oqimlari, yo'lovchi talabi, yuk harakati, yo'l va bekatlar holatini inventarizatsiya qilish	Hududlar kesimida raqamli xaritalash, so'rov va statistik tahlil	Aniq muammo zonalarini va ustuvor yo'nalishlar belgilanadi
2-bosqich: infratuzilma	Yo'l, bekat, terminal, ombor, servis bazasi va zaryadlash punktlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish	Davlat dasturlari, mahalliy budjet, xususiy investitsiya va DXSh loyihalari	Tashish tezligi, xavfsizlik va xizmat qamrovi oshadi
3-bosqich: raqamlashtirish	GPS-monitoring, elektron to'lov, elektron hujjat aylanishi va real vaqt dispetcherligini joriy etish	Yagona transport ma'lumotlari platformasi va operatorlar integratsiyasi	Boshqaruv shaffofligi, tushumlar nazorati va qatnov intizomi kuchayadi
4-bosqich: xizmat sifati	Marshrutlarni talabga mos qayta tuzish, servis standartlari va mijozlar baholash tizimini kiritish	Qatnov jadvali, kutish vaqti, qulaylik, shikoyatlarni ko'rib chiqish indikatorlari	Yo'lovchi qoniqishi va transportdan foydalanish darajasi oshadi
5-bosqich: barqaror monitoring	Natijalarni har chorakda baholash va rivojlanish dasturini tahrirlash	Hokimlik, transport boshqarmasi, operatorlar va jamoatchilik nazorati	Tizim doimiy takomillashib boradi, investitsiya samarasi nazorat qilinadi

Yo'l xaritasi transport xizmatlarini rivojlantirishda ketma-ketlik va nazorat mezonlarini aniq belgilash zarurligini ko'rsatadi. Diagnostika bosqichsiz infratuzilma loyihalari umumiy tavsiyalar darajasida qolishi mumkin. Raqamli platforma yaratilmasa, xizmat sifati bo'yicha real vaqt ma'lumotlari shakllanmaydi. Monitoring tizimi ishlamas, investitsion loyihalar natijasi o'z vaqtida baholanmaydi. Shu mantiq transport xizmatlarini boshqarishda ilmiy asoslangan, ma'lumotlarga tayangan va hududiy farqlanishni hisobga olgan qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar Samarqand viloyatida transport xizmatlari hududiy iqtisodiyotning tayanch infratuzilmaviy bo'g'ini sifatida rivojlanayotganini ko'rsatdi. Transport xizmatlari hajmining 2021–2025-yillarda yuqori sur'atlarda oshgani, yuk va yo'lovchi tashish ko'rsatkichlarining barqaror kengaygani viloyatda iqtisodiy faollik, turizm, savdo va hududlararo aloqalar kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bu o'sishning keyingi bosqichi sifat ko'rsatkichlari, xarajatlar maqbulligi, ekologik barqarorlik va raqamli boshqaruv bilan mustahkamlanishi zarur.

Samarqand viloyatida transport xizmatlarini rivojlantirishning birinchi ustuvor yo'nalishi moddiy-texnik bazani yangilashdir. Avtomobil yo'llari, bekatlar, terminal va ombor obyektlari, transport parki, texnik xizmat ko'rsatish bazalari hamda xavfsizlik infratuzilmasi transport xizmatlari sifati uchun bevosita shart yaratadi. Yo'l va transport vositasi sifati past bo'lgan sharoitda raqamli boshqaruv ham kutilgan darajada iqtisodiy samara bermaydi.

Ikkinchi yo'nalish logistika markazlari va multimodal transport tugunlarini rivojlantirish bilan bog'liq. Samarqand viloyatining savdo, qishloq xo'jaligi va turizm salohiyati yuk va yo'lovchi oqimlarini markazlashtirilgan, samarali va tezkor boshqarishni talab qiladi. Logistika tugunlari ishlab chiqarish hududlari, temir yo'l, avtomobil yo'llari, aeroport va turistik markazlar bilan bog'langanda transport xizmatlari viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi.

Uchinchi yo'nalish transport xizmatlarini raqamlashtirishdan iborat. GPS-monitoring, elektron to'lov, onlayn dispetcherlik, elektron hujjat aylanishi va yo'lovchi oqimlarini ma'lumotlar asosida tahlil qilish transport tizimida boshqaruv aniqligini oshiradi. Raqamli vositalar tushumlar shaffofligini kuchaytiradi, marshrutlar samaradorligini baholaydi, bekor turish va kechikishlarni kamaytiradi.

To'rtinchi yo'nalish jamoat transportini ekologik va mijozga yo'naltirilgan model asosida takomillashtirishdir. Elektrobuslar, quvvatlash infratuzilmasi, qulay bekatlar, real vaqt axboroti va naqd pulsiz to'lov tizimi Samarqand shahri uchun ayniqsa dolzarb. Turistik hududlarda transport xizmati shahar imiji va mehmonlar tajribasining bir qismi sifatida baholanishi kerak.

Beshinchi yo'nalish investitsion-institutsional mexanizmlarni kuchaytirishdir. Davlat-xususiy sheriklik, lizing, imtiyozli kredit, operatorlar faoliyatini samaradorlik indikatorlari asosida baholash, tarif siyosatini shaffflashtirish va hududiy dasturlarni muvofiqlashtirish transport xizmatlari rivoji uchun zarur boshqaruv asosini yaratadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2025 yildagi PQ-28-son "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Transport xizmatlari hajmi 168 trln so'mdan oshdi. 19.01.2026. Stat.uz
3. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari, 2025-yil yanvar-sentabr. Samarqand statistika boshqarmasi
4. Rodrigue, J.-P. The Geography of Transport Systems. 6th edition. Routledge, 2024.
5. Button, K. Transport Economics. 4th edition. Edward Elgar Publishing, 2022.
6. Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management. 4th edition. Financial Times Prentice Hall, 2011.
7. Rajabov Q.S. Transport xizmatlari ko'rsatishning rivojlanish xususiyatlari va tamoyillari. Marketing Journal, 2025.
8. Tursunov O.B. O'zbekistonda transport-logistika xizmatlarini rivojlantirish va logistika xizmatlari sifatini boshqarish jarayonlarini iqtisodiy baholash. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2023.
9. Ilesaliyev D.I. Transport servisi va logistik xizmatlarni boshqarish. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>